
“OCHIQ BYUDJET” AXBOROT PORTALIDA “MENING MAKTABIM” LOYIHASI O‘TKAZILADI



“Ochiq byudjet” axborot portalida “Mening maktabim” loyihasi o‘tkaziladi

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq joriy yilda tanlab olingan 14 ta tumandagi 612 ta maktabda sinov tariqasida “Mening maktabim” loyihasi o‘tkaziladi.

Bunda,

18-27-dekabr kunlari – loyihalarni shakllantirish (10 kun);

2025-yil 2-11-yanvar kunlari – loyihalarni saralash (10 kun);

13-17-yanvar kunlari – ovoz berish (5 kun) bosqichlari bo‘lib o‘tadi.


Eslatma: ushbu loyihada maktablarning 5-11-sinf o‘quvchilari ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

“Mening maktabim” loyihasi doirasida o‘quvchilar tomonidan o‘zlari ta‘lim olayotgan maktabni jihozlash va qurilish-ta‘mirlash ishlari bo‘yicha loyihalar shakllantiriladi hamda o‘quvchilar tanlagan (ovoz bergan) loyihalar moliyalashtiriladi.

Joriy yilda g‘olib loyihalarni moliyalashtirish uchun har bir maktabga 50 million so‘mdan mablag‘ ajratiladi.

Mening maktabim – mening orzularim uyi!

Tashabbus ko‘rsating, faol bo‘ling!



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-12-21 10:07:44